



UDK:420.415.61:398.9(045)

*Nargiza AMIRQULOVA,
Qarshi davlat universiteti katta o'qituvchisi*

Qarshi DU dotsenti v/b M.Omonova taqrizi asosida

STAGES OF FORMATION OF PHRASEOLOGICAL COMPETENCE

Annotation

Phraseologisms are a treasure of language heritage, including many idiomatic expressions, proverbs and sayings that embody the essence of Uzbek culture and traditions. Phraseology shows the ingenuity and creativity of speakers, from colorful metaphors that evoke vivid images to meaningful aphorisms that turn complex thoughts into concise phrases.

Key words: Phraseology, linguistics, Uzbek language, human history, speaker, word, stable idioms, characters, linguistic department, expression, stable sentences.

РАЗВИТИЯ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ

Аннотация

Фразеологизмы представляют собой сокровищницу языкового наследия, включающую множество идиоматических выражений, пословиц и поговорок, воплощающих суть узбекской культуры и традиций. Фразеология демонстрирует изобретательность и креативность говорящих: от красочных метафор, вызывающих яркие образы, до содержательных афоризмов, превращающих сложные мысли в краткие фразы.

Ключевые слова: Фразеология, языкознание, узбекский язык, история человечества, носитель, слово, устойчивые фразеологизмы, персонажи, лингвистический отдел, экспрессия, устойчивые предложения.

FRAZEOLIGIK KOMPETENSIYANING SHAKLLANISH BOSQICHLARI

Annotatsiya

Frazeologizmlar o'zbek madaniyati va an'alarining mazmun-mohiyatini o'zida mujassam etgan ko'plab idiomatik iboralar, maqol va matallarni o'z ichiga olgan til merosining xazinasi hisoblanadi. Kundalik suhbatda, adabiyotda yoki rasmiy nutqda qo'llanilishidan qat'i nazar, bu iboralar muloqotni shakllantirish, aloqalarni mustahkamlash va madaniy o'ziga xoslikni saqlashda muhim rol o'ynaydi.

Kalit so'zlar: Frazeologiya, tilshunoslik, o'zbek tili, inson tarixi, so'zlovchi, so'z, turg'un brikmalar, belgilar, tilshunoslik bo'limi, ifoda, barqaror jumlarlar.

Kirish. Frazeologiya tilshunoslikning alohida bir bo'limi bo'lib, unda ko'chma ma'noga asoslangan turg'un birikmalar va iboralar o'rganiladi. "Frazeologiya". termini grekcha "phrase" fraza,ifoda; "logos" ta'limot degan ma'nolarni anglatib, uning tadqiqot doirasiga faqat ko'chma ma'noga asoslangan turg'un birikmalar kiritiladi. Tilshunoslik bo'limi sifatidagi frazeologiyaning asosiy diqqat e'tibori frazeologizmlar tabiatini va ularning kategorial belgilarini o'rganishga, shuningdek, frazeologizmlarning nutqda qo'llanish qonuniyatlarini aniqlashga qaratiladi. Uning eng muhim muammosi frazeologizmlarni nutqda hosil qilinadigan (ya'ni avvaldan tayyor bo'lmagan) so'z birikmalaridan farqlab, ajratib olish va shu asosda frazeologizmlarning belgilarini aniqlashdir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Frazeologik birikmalar va barqaror jumlarlar (maqol va matallar, gapga teng boshqa frazeologizmlar) o'rtasidagi muayyan tafovutlarga qarab ko'plab tadqiqotchilar frazeologiyani 2 xil: tor va keng ma'noda tushunadilar. Uni keng ma'noda tushunilganda (L.P.Smit, V.P.Jukov, V.N.Teliya, N.M.Shanskiy) frazeologiya doirasiga maqol va matallar, folklorga xos barqaror jumlarlar, ba'zi muloqot shakllari (salomlashish, xayrlashish jumalari) ham kiritiladi. Lekin bu masala, ya'ni frazeologiyani keng ma'noda tushunish masalasi zamonaviy tilshunoslikda hanuz munozarali bo'lib qolmoqda. V.V. Vinogradov frazeologiya tarkibiga barqaror jumlarlar hamda qanotli so'zlarni kiritilishiga qarshi bo'lgan va maqol va matallar so'z ekvivalenti bo'la olmasligi hamda shaklan gapga teng bo'lgani uchun frazeologiyaning o'rganish ob'yekti bo'la olmaydi" deb aytib o'tgan .

Frazeologizm til tizimining asosiy birligi sifatida tildagi mavjud so'z birikmalarining umumiy hisobidan qiyinchilik bilan farqlanadigan, murakkab, ko'p aspektli lisoniy hodisasi hisoblanadi. Frazeologik birliklarni o'rganish ob'yekti haqida tilshunoslar tomonidan ularning o'nlab mezon va belgilari qayd etilgan. Frazeologizmlar maqomining yetarli darajada aniq belgilanmaganligi frazeolog-olimlar o'rtasida hozirgi kungacha ko'plab bahs-munozaralarni keltirib chiqarmoqda.

Xorijiy frazeologiya nazariyasiga bag'ishlangan ilmiy ishlarni o'rganish va tahlil qilish jarayonida biz uning asosiy belgilariga berilgan turlicha ta'rif va talqinlarga duch keldik. Jumladan, Sh.Balli frazeologizmning asosiy belgisi uning o'rnini o'sha iboraning ma'nosiga to'g'ri keladigan so'z bilan almashtirish mumkin yoki mumkin emasligi, deb hisoblaydi. B.A.Larin uning asosiy belgisini frazeologik birliklarni tashkil qiluvchi alohida so'zlarning ma'nosidan, o'sha birliklarning umumiy ma'nosining kelib chiqmasligida, deb biladi. A.A.Reformatskiy frazeologik iboralarning boshqa tillarga so'zma-so'z tarjima qilinishi mumkin emasligi uning yetakchi belgisidir, degan fikrni bildiradi. M.V.Lomonosov rus adabiy tili lug'atini tuzar ekan, bunda so'zlar bilan bir qatorda "xalq maqollari", "idiomatizmlar" va frazemalar ham o'z ifodasini topgan bo'lishi lozimligini alohida ta'kidlagan edi.

Ko'pgina olimlar frazeologizmning farqli belgilari sifatida ularning nutq jarayonida yaratilmay, balki nutqda tayyor holda kiritilishi, ularning komponentlarini bir-biridan ajratish mumkin emasligi, ularning ma'no jihatdan yaxlitligi, nomlanishining bir butunligi, frazeologizmlarni tashkil qiladigan alohida komponentlarning faollasha olmasligi,

leksemalar birikishining cheklanganligi va boshqalarni ko'rsatadilar. Ayrim tilshunoslar frazeologiyaning chegarasini aniqlash uchun ma'lum "frazeologik kontekst" yoki "frazeologik qurshov" bo'lishi shart, deb ta'kidlaydilar. Jumladan, N.N.Amosova "frazeologik kontekst" g'oyasini, M.T.Tagiyev "eng yaqin frazeologik qurshov" g'oyasini olg'a suradi. Har ikkala g'oyaning ham muhimligi frazeologiya nazariyasi uchun tabiiy bir hol, chunki har qanday frazeologik birlikning ma'nosi ma'lum kontekstlarsiz amalga oshirilishini tasavvur qilish qiyin. Lekin bunday g'oya- nazariyaning kamchiligi shundan iboratki, ba'zi hollarda muayyan kontekst doirasida sof frazeologik birliklarni, nofrazeologik xarakterdagi turg'un so'z birikmalaridan va erkin so'z birikmalaridan farqlashni murakkablashtiradi.

A.M.Babkinning fikricha, frazeologik birliklar to'rtta xususiyatga ega: 1) ma'noning yaxlitligi; 2) so'z birikmalarining turg'unligi; 3) ko'chma ma'noga ega bo'lishlik; 4) emosional-ekspressiv ta'sirchanlik.

I.V.Arnold esa frazeologizmlarning umumiy belgilari ularning turg'unligi, ma'nolarining yaxlitligi va komponent tarkibining alohida-alohida rasmiylashtirishidan iborat, - deb hisoblaydi. A.V.Kunin va A.G.Nazaryanlar frazeologik birliklarning mohiyatini juda qisqa, lo'nda ifodalab, shunday ta'rif yaratdilar: "frazeologik birlik – bu qisman va to'liq ko'chma ma'noga ega bo'lgan turg'un so'z birikmalaridir".

Tadqiqot metodologiyasi. Tilshunoslikda frazeologiyaning qamrov doirasini aniqlashdagi chalkashliklarga sabab shuki, har bir olim uning ma'lum bir belgisini asos qilib oladi va shuni mutlaqlashtiradi. Ma'lumki, bunday mutlaqlashtirish vaqtincha bo'lib, ma'lum nuqtada muayyan vaqtga kelib u o'z ahamiyatini yo'qotadi. Ayrim olimlar frazeologizm mezonini aniqlashda ma'no butunligini asos qilib qilsa, N.N.Amosova, V.A.Arangel'skiy, M.M.Kopilenko, A.V.Kunin, V.P.Jukov, A.G.Nazaryan esa semantik butunlik va nominativlikni yetakchi belgi sifatida qaraydi. G.G.Sokolova bunga tanqidiy yondashib, nominativlik barcha turdagi so'z birikmalariga xosligi va shuning uchun ham bu belgilar frazeologik ibora uchun mezon bo'lmasligini ta'kidlaydi.

Frazeologizmlarning asosiy belgisi - mezon sifatida ularning turg'unligini birinchi planga chiqaruvchi V.A.Arangel'skiy, A.M.Babkin, N.M.Shanskiy kabi olimlar barcha turdagi turg'un birikmalarni, shu jumladan, maqol va matallarni ham ular tarkibiga qo'shib qo'yishadi. Shuningdek, frazeologizmlarning asosiy differensial belgisi sifatida L.A.Bulaxovskiy, A.A.Reformatskiylarularning o'zga tilga so'zma-so'z tarjima qilinmasligini, A.I.Yefimov obrazlilikini, M.M.Kopilenko leksemalardan tuzilganligini, I.S.Toropsevlar esa semantik butunligini asos qilib oladilar.

Boshqa bir qator tadqiqotchilar frazeologizmlarni bir necha belgilar majmuidan iborat, - deb ko'rsatadilar. Jumladan, M.I.Sidorenko frazeologizmlarning o'ziga xos belgilari sifatida turg'unligi, semantik butunligi, ma'noning umumlashma metaforik xarakterda bo'lishini; A.M.Babkin esa ma'no butunligi, so'z birikmalarining turg'unligi, ko'chma ma'noga ega bo'lishi, emosional-ekspressivligini ta'kidlaydi.

Yana shuni qayd etish lozimki, u yoki bu so'z birikmalarini frazeologiya doirasiga kiritish yoki kiritmaslik masalasida ham olimlar o'rtasida bir-biriga qarama-qarshi va bahs-munozarali fikrlar mavjud. Shu sababli frazeologiya tadqiqotchilar tomonidan "tor" va "keng" ma'noda tushunilmoqda. Frazeologiyani "tor" ma'noda tushunuvchilar (Yu.Yu.Avaliani, N.N.Amosova, I.I.Chemishova, V.P.Jukov, A.I.Molotkov)ning chegarasini haddan tashqari qisqartirib, uning qamrov doirasidan obrazli aforizmlarni, maqol va matallarni, ko'chma ma'noga ega bo'lgan terminologik birikmalarni chiqarib tashlash kerakligini uqtiradilar.

Aksincha, frazeologiyani "keng" ma'noda tushunuvchilar (O.S.Axmanova, V.V.Vinogradov,

A.P.Yefimov, Ye.D.Polivanov, N.M.Shanskiy va boshqalar) esa "sof" idiomalardan tashqari, aforizmlarni, maqol va matallarni, "qanoatli so'zlar"ni, turg'un so'zlashuv formulalarini, ilmiy-terminologik birikmalarni, ba'zi kanselyarizm va qolip so'z birikmalarini ham frazeologik birliklar bo'ladi, deb hisoblamodalar. Masalan, N.M.Shanskiy, Yu.R.Gepner, M.M.Kopilenko va Z.D.Popovlar frazeologiyani "keng" ma'noda tushunib, "temir yo'l, siyosiy iqtisod, Davlat mukofoti laureati, vazifani bajarmoq, yaxshilik qilmoq" kabi turg'un so'z birikmalarini ham uning doirasiga kiritib yubormodalar. Nazarimizcha, frazeologizmlar chegarasini bu darajada kengaytirish aslo mumkin emas, chunki yuqorida keltirilgan so'z birikmalarida frazeologizmining eng asosiy belgisi ya'ni, qisman yoki to'liq ko'chma ma'no yo'q.

Tahlil va natijalar. Mutaxassis olimlarning fikrlarini qo'llab-quvvatlagan holda, biz, frazeologiyani "keng" va "tor" ma'noda tushunish noto'g'ri, uni bitta (ba'zan ikki) ma'noda qo'llanish xususiyatiga ega, degan fikrdamiz.

"Frazeologiya" terminini dastlab shvetsar-fransuz tilshunosi Sharl Balli tomonidan "Precis de stylistique" ishida qo'llanilgan. Frazeologiya sohasining ilk tadqiqotchisi, shubhasiz, o'zining "Stilistika ocherki" (1905) va "Fransuz tili stikasi" (1909) nomli ishlariga so'z birikmalari, frazeologizmlarni tadqiq etuvchi maxsus boblar kiritgan. Birinchi asarda Sharl Balli so'z birikmalarining to'rt turini farqlagan, ya'ni: 1) erkin birikmalar (les groupements libres) o'z ma'nosida qo'llaniladigan birikmalar; 2) odatiy birikmalar (les groupements usuels) nisbatan erkin bog'langan birikmalar bo'lib tarkibiga ba'zi o'zgartirishlar kiritish mumkin; 3) frazeologik qatorlar (les series phraseologiques) bunda ikki va undan ortiq birliklar birikib yaxlit bir ma'no ifodalab keladi, ammo uning komponentlari tartibiga o'zgartirishlar kiritish mumkin; 4) frazeologik birliklar (les unites phraseologiques), bunda o'z ma'nosini tamomila yo'qotgan, komponentlari tartibi bo'lgan birliklarni kiritadi.

Sharl Balli "Fransuz stilistika" sida birikmalarning faqatgina ikki turini farqlaydi: U keyingi asari odatiy birikmalar hamda frazeolog indikatorlarni erkin birikmalar va frazeologik birliklarning tarkibiy qismi sifatida talqin qilgan. Umuman, Sharl Balli frazeologiya sohasida tadqiqotni boshlab bergan tilshunoslardan edi. Keyinchalik bu sohada juda ko'p muvaffaqiyatlarga erishildi.

Ingliz tilshunosi A.I.Smirkinskiy ham frazeologiyaning alohida tilshunoslik bo'limi sifatida ajralib chiqishini qo'llab-quvvatlagan. U o'zining "Ingliz tili sintaksisi" asarida bu soha haqida quyidagicha fikr bildirganida mutloq haq edi: "Frazeologik birikmalar tadqiqi bilan leksikologiyaning bir qismi bo'lgan frazeologiya shug'ullansa ham, bu birliklar tilning sintaktik sathida tahlil qilinishi lozim. Agar bu sohani alohida bo'lim ekanligi tan olinmas ekan, qanday qilib biz uni fan deb atay olamiz". Sharl Balli ta'limotiga ko'ra, FB larning eng muhim belgisi yagona bir so'z bilan sinonimik munosabatga kirisha olish yoki olmasligidadir. Bunday so'zni Sharl Balli so'z-identifikator deb atagan va bunday o'zgarishlarni FB larning ichki yaxlitgi belgisi sifatida talqin qilgan. Ammo bu o'rinda alohida ta'kidlash lozimki, buyuk tilshunosning ushbu qarashlariga to'g'ri kelmaydigan holatlar ham til tizimida kuzatiladi. Ingliz tilida juda ko'p FB larning so'z-identifikatorlari mavjud emas, ya'ni ularning ma'nosini yagona bir so'z bilan ifodalashning iloji yo'q. Masalan: *drink like a fish-drink too much; a hard nut to crack-a very difficult problem; a small way-on a small scale.* Qolaversa, tilning frazeologik fondini tashkil qiluvchi maqol va matallar identifikatori faqatgina gaplar bo'lishi mumkinligini ham e'tibordan chiyetda qoldirmaslik lozim. Masalan, *birds of a feather flock together - people who have the same interests, ideas; the blind leading the blind - a situation in which the person who is leading or advising others knows as little as*

they do. Ayni lisoniy holatlardan kelib chiqqan holda frazeologik birliklarni tilning boshqa birliklaridan farq qiluvchi, o'ziga xos ma'no va tuzilishga ega bo'lgan birliklardir, deb bemaol aytsak bo'ladi. Ularni so'z ekvivalenti sifatida ko'rib chiqish faqat sohani chalkashtirish, qiyinlashtirishga olib boradi. Albatta, frazeologik birliklar va so'zlar umumiy jihatlarga ega, ammo bu umumiylikni bo'rttirib ko'rsatish kerak emas.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilsak frazeologiya alohida fan sifatida jahon tilshunosligida tan olingan;

shakllanishi va rivojlanishi davomida bir necha bosqichlarni bosib o'tgan; hozirgi vaqtda frazeologiya o'z ichki tuzilishiga, modellar va variantlarga ega; muayyan tadqiqot masalalariga ega bo'lgan tilshunoslikning alohida bo'limi sifatida shakllanib bo'lgan. Undagi ko'plab ilmiy-amaliy muammolar hali o'z yechimini kutayotgan bo'lsa-da, zamonaviy tilshunoslikda frazeolo-giyaning nazariy masalalari birin-ketin o'rganilmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Виноградов В.В. Об основных типах фразеологических единиц в русском языке // Виноградов В.В. Лексикология и лексикография: Избр. Тр. - М.: Наука, 1986.
2. Влахов С., Флорин С. Непереводимое в переводе. – М., 1986.
3. Дубинец Э.М. Курс лекций и планы семинарских занятий по лексикологии английского языка.
4. O.A.To'raqulova Adabiyot Darslarida Tekstual-Analitik Tahlil Asosida Oquvchilarda Mutolaani Rivojlantirish"2023 /1(15) ISSN -2181-922X
5. Суярова Н.Ю. Fundamentals of conceptual study of metaphorical meaning // International Journal for Advanced Research in Science and Technology // Research (IJARST), Vol-10, Issue -05 May 2020. – Page. 51-58. ISSN:2457-0362.
6. Atamurodova F.T. Utopian Views in different eras and its evolution. International Journal of Formal education.VOLUME 2, (12) 2023., p.100-104